

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA AKADEMIK MUSTAQILLIK SAMARASIGA
ERISHISHDA RAQOBATNING AHAMIYATI.**

Yuldashev Feruz Isroil o'g'li.

Buxoro davlat universiteti

Tayanch doktorant.

Mamlakat iqtisodiyotining muntazam rivojlanishi va barqarorlikka erishishi uchun yetarli choralarni qo'llash masalasi bugungi kun jamiyat hayotining barcha jabhalarida innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalga oshirishni taqazo etadi. Ta'lism sifatini baholash, uning monitoringgini olib borish, indikatorlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish bugungi kundagi eng muhim yo'naliishlardan biri sanalib, ta'lism sifatining zaruriy darajasini ta'minlash, ta'lism sifati menejmenti va kvalimetriyasingning samarali metodlarini ishlab chiqishga nisbatan metodologik yondashuvni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi³. Garchi bugungi kunda aholining oliy ta'limga bo'lgan qamrovini oshirish tadbirlari amaliyotda keng qo'llanilayotgan bo'sada, Oliy ta'lism muassasalari bugungi kun bozor talablariga munosib bo'lgan kadrlarni tayyorlab berishda sustkashlikka yo'l qo'ymoqdalar. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo'jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinnari bor. Lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo'yicha ham bu talabni qondira olmaydi⁴”. Shu sababli mamlakat iqtisodiyotining istiqbolini ta'minlashda oliy ta'lism tizimining ahamiyatini oshirish maqsadida oliy ta'lism muassasalari uchun keng ko'lamda imkoniyatlar ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 yildagi PQ-60-sonli “Davlat oliy ta'lism muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruvi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021-yildagi PQ-61-son “Davlat oliy ta'lism muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori shular jumlasidandir.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lism yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Prezident farmoniga ko'ra professional ta'lism tizimini rivojlantirish, mehnat resurslari salohiyatini oshirish uchun Yevropa kasbiy ta'lism va kasbga o'qitish tizimi talablariga mos bo'lgan Professional ta'lism muassasalarini respublika hududlari bo'yicha tashkil qilish vazifasi belgilangan. Mazkur holatda mehnat bozorida raqobatbardosh va ish beruvchi ehtiyojlarini qondiradigan kadrlarni yetishtirish, shuningdek aholining professional ta'limga bo'lgan ehtiyojini ijtimoiy nuqtayi nazardan qo'llab quvvatlash maqsadida davlat grantlari kollej va texnikumlarning dual shakli bo'yicha ajratish nazarda tutilgan⁵.

³ <https://lex.uz/docs/-3286194>

⁴ <https://yuz.uz/news/oliv-talim-tizimidagi-ustuvor-vazifalar-belgilandi>

⁵ https://uza.uz/uz/posts/2022-2026-yillarga-molzhallangan-yangi-ozbekistonning-taraqqiyot-strategiyasini-insongae-tibor-va-sifatli-talim-yilida-amalga-oshirishga-oid-davlat-dasturi-togrisida_458521

Global iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan va turli sohalarda raqobat muhiti tobora keskinlashayotgani ayni sharoitida O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin"ligi ayni haqiqatdir.

Bugungi kun bozor iqtisodiyoti talablariga munosib jamiyat hayoti va ijtimoiy munosabatlarni raqobatsiz tasavvur etish qiyin. Ta'lim tizimi jamiyat hayotining integral-ajralmas qismi ekan, bozor iqtisodiyoti ta'lim sohasida ham raqobatga asoslangan munosabatlarning tashkil qilinishini taqazo etadi va soha rivojining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Raqobat - bu tadbirkorlik faoliyatining asosiy bir qismidir. U jamiyat a'zolarining ijtimoiy munosabatlarining bir bo'lagi sifatida umum ijtimoiy xarakter hisoblanib, ijtimoiy jarayon subyektlari o'rtasida farovon hayotga erishish uchun sodir bo'ladigan kurashni anglatadi⁶.

Raqobat - bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi⁷.

Taniqli amerikalik olim M.E.Porterning tadqiqotlariga ko'ra, alohida bozordagi raqobatning holatini beshta raqobat kuchi orqali tavsiflash mumkin:
1. Raqobatlashuvchi sotuvchilar o'rtasidagi bellashuv (har bir firma raqobat afzalliklaridan foyda olish va qulay mavqega ega bo'lish uchun o'zining shaxsiy raqobat strategiyasiga amal qiladi).

2. Bir-birini o'rnini bosuvchi va narx nuqtai nazaridan raqobatbardosh bo'lgan tovarlar o'rtasidagi raqobat (o'rnini bosuvchi tovarlar tomonidan yuzaga kelgan xavf tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

3. Yangi raqobatchilarning paydo bo'lish xavfi (yangi raqobatchilar paydo bo'lishi xavfi tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

4. Mol yetkazib beruvchilarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatları (mol yetkazib beruvchilarning imkoniyatlari va savdo qibiliyatları tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

5. Xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatları (xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatları tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari). Shunday qilib, raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi va bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

⁶ Karlibayeva R.X., Temirov A.A. Korxonalarini raqobatbardoshligini baholash. – T.: Iqtisodiyot, 2019. -155 bet.

⁷ "Raqobat Strategiyasi" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. i.f.d. (DSc) N.J.Sotvoldiyev Namangan 2022

8. Isroil o’g’li Y. F. The Importance of the Teacher-Student Ratio in Improving the Quality of the Educational Environment in Higher Educational Institutions //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 76-81.
9. Yuldashev F. O’ZBEKISTON TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANТИRISHDA XORIJY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA KLASTERLARNING AHAMIYATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
10. Abdullayeva N. Japanese Experience in Increasing the Efficiency of Tourist Territories in Uzbekistan //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2021. – T. 7. – №. 7.
11. Khamidov, Obidjon Khafizovich. "FOREIGN COUNTRIES'EXPERIENCE IN DEVELOPING TOURISM POTENTIAL AND SIGNIFICANCE OF CLUSTERS IN UZBEKISTAN." *Scientific reports of Bukhara State University* 4.2 (2020): 281-284.
12. Isroilugli, Y. F. . "Prospects for Post-Pandemic Development in the Tourist Areas of Uzbekistan". *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, vol. 4, Mar. 2022, pp. 809-12, <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/189>.
13. Yuldashev F. ЖАҲОН ТУРИЗМ САНОАТИДА ПАНДЕМИК ҲОЛАТ ВА УНИНГЎЗБЕКИСТОН ТУРИЗМ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
14. Yuldashev F. ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИСТИК ХУДУДЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КЛАСТЕРЛАР ФАОЛИЯТИНИ КЕНГАЙТИРИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.